

JAVLON UMARBEOV IJODIDA TARIXIY SIYMOLAR TASVIRI: „AMIR TEMUR” VA „KAMOLIDDIN BEHZOD SHOGIRDLARI BILAN” ASARLARINING TAHLILI

Abdusalomova Hilola Orifjon qizi

Rangtasvir: Mahobatli rangtasvir yoʻnalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oʻzbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekovning Amir Temur va Kamoliddin Behzodga bagʻishlangan asarlari badiiy tahlil qilinadi. Ushbu tarixiy portretlar rassomning uslubi, rang tanlovi, kompozitsion yechimlari va obraz yaratish mahorati orqali koʻrib chiqiladi. Maqolada rassomning har bir asari tarixiy shaxsiyatlarning xarakterini ochib berishdagi oʻziga xos badiiy ifodasi orqali koʻrib chiqilib, uning ijodiy tamoyillari yoritiladi.

Kalit soʻzlar: Javlon Umarbekov, tarixiy, portret, Amir Temur, Kamoliddin Behzod, badiiy tahlil,

Kirish: Sanʼat insoniyat tarixining muhim qismini tashkil etib, unda milliy oʻziga xoslik, tarixiy voqealar va buyuk shaxslarning obrazlari aks ettiriladi. Oʻzbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov ijodida ham tarixiy mavzular, xususan, Amir Temur va Kamoliddin Behzod kabi buyuk siymolar tasvirlangan asarlar alohida oʻrin tutadi. Rassomning ushbu portretlarida nafaqat tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasi, balki ularning ichki dunyosi, shaxsiyati va davr ruhiyati ham aks ettirilgan.

Kamoliddin Behzod 1455-yili Hirot shahrida kambagʻal hunarmand oilasida tugʻildi. Yoshligidayoq yetim qoldi va Husayn Boyqaro saroyi kutubxonasi boshligʻi boʻlgan mashhur rassom Mirak Naqqosh qoʻlida tarbiya topdi. Bu davrda oʻsmir Behzod oʻz davri tasviriy sanʼatining sirlarini oʻrgandi. “Pir Sayid Ahmad Tabriziy Mirak Naqqoshning ustози boʻlgan edi, u esa oʻz vaqtida Buxorolik usta Jahongirdan talim oldi.

Kamoliddin Behzod tez orada oʻz zamondoshlari, rassomlar va Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va Alisher Navoiy kabi shoirlarning eʼtiboriga tushdi. Uning shu paytdagi hayotiy lavhasi rassom Javlon Umarbekovning “Miniaturachi Kamoliddin Behzod shogirdlari bilan” nomli asarida oʻz aksini topdi. Bahor uygʻonish, gullash pallasi. Ustoz shogirdlarga qoʻlida ushlab turgan gul haqida soʻzlab beryabdi, u tabiatning ajralmas bir qismi va soflik, nazokat va uygʻunlikni ifodalashini taʼkidlayabdi. Gul oʻzida goʻzal hayotni aks ettiradi. Yosh rassomlar ustoz hikoyasini diqqat bilan tinglayabdi. Tabiiyki, bunday saboqdan keyin boʻlajak miniatyurachi rassomlar bahorni va u bilan bogʻliq tabiatdagi yangilanish jarayonini oʻzgacha tushuna boshlaydilar, unda navqironlik, gullab-yashnash va umidvorlik davrini koʻradilar. Yosh

rassomlar olamga o'z nigohi bilan qarab, uni o'zlarining ajoyib asarlarida aks ettiradilar. Hayotning har bir lahzasi ularni tabiat go'zalligini qadrlashga o'rgatadi. Gullar, novdalar naqshlari yosh rassomlarning qalbi bilan uyg'unlashib ketgan. Asarning old planida gullar bilan qoplangan shox tasvirlangan. Unga insonni tabiat bilan aloqasi ramzi bo'lgan sayroqi qush qo'nib turibdi[1,44].

Suratning orqa fonida rassom fikrlarining ijodiy parvozi, oldinga jadal harakati. Insonni ruhan g'alabaga intilishi ramzi bo'lgan chopqir otlar tasvirlangan. Bularning barchasi asarda haqqoniy ifodalangan, obrazlar jonli chiqqan.

Asar iliq, tillarang tuslarda yaratilgan. Rassom asarda ranglar uyg'unligiga erishgan va qahramonlar shaxsiyatini aniq ochib bergan.

Asar kompozitsiyasi yaxshi o'ylangan va ranglar to'g'ri berilgan, o'simliklar tanasi va shox barglari bir yo'nalishga bo'ysundirilgan. Rassom Sharq miniatyurasi va G'arbiy Yevropa badiiy maktabi an'alarini o'zaro tasviriy uyg'unlashtirib yuborganligi uning yuksak mahoratidan darak beradi.



J.Umarbekov. "Miniatyurachi rassom Kamoliddin Behzod shogirdlari bilan" 1970-yil.

Javlon Umarbekov asarlarida tarixiy shaxslar qiyofasi to'laqonli kompozitsiyalar qamrovida gavdalanadi. Bu o'rinda, ayniqsa, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar obrazlarining to'laqonli gavdalanishi diqqatga sazovordir. Keyingi yillardagi asarlarida rassom milliy merosimizga, jumladan, amaliy bezak san'atidagi an'analarga e'tiborini kuchaytirdi. U xalq amaliy san'atidagi ramziy belgilar kalitini topish, o'sha siru asrnlarni bo'yoqlar orqali jonlantirish borasida izlanishlar olib bormoqda[2,159].

1996 yili Toshkent shahridagi "Xamar" Markaziy ko'rgazma zalida hukmdor Amir Temur va temuriylarga bag'ishlangan ko'rgazma namoyish etildi. Mahoratli rassom Javlon Umarbekov bu ko'rgazmada oval shaklidagi ramakada, yaxshi stilistik usulda, biroz shartli, lekin chiroyli ishlangan Amir Temur portretini namoyish qildi. Amir

Temur portreti belidan tasvirlangan. Hukmdor naqshinkor buklamlari osilib turgan matoli dabdabali chodirda o'tiribdi. Bu kuchli va qudratli insonning fikri tarang ishlayotganligi seziladi. Uning ko'zlarida qat'iylik va jasorat zohir bo'lgan. Kompozitsiya ixcham tuzilgan, uni sirli ohangi, yaxshi shakli sezilib turadi[1,105].

Rassomning ko'pgina asarlari kabi bunda ham barcha jixatlar asosli hal qilingan. Sarkarda obrazida nafaqat jismoniy qudrat, balki tiniq fikrni ham o'qish mumkin. U qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan shohona libosda tasvirlangan. Uning yelkasiga qora qunduz terisi bilan hoshiyalangan, qimmatbaho metallardan ilgak bilan ilingan issiq rido tashlab olgan. Ridoga o'simlik naqshlaridan iborat bezaklar tikilgan.



Sohibqiron Amir Temur. J.Umarbekov

Chap qo'lida u cheksiz hokimiyat ramzi bo'lgan oltin quyma cho'qmor ushlab turibdi. Uning ko'kragi va belini oltindan yasalgan plastinkalar yopib turibdi, beliga naqshinkor mato bog'langan. Boshida pat qadalgan ajoyib toj.

Amir Temurning yuzida quvvat va ayni paytda osoyishtalik va g'azabnoklik zohir. Keng joylashgan, ifodali ko'zlari sinchikovlik bilan tikilgan. Hukmdor yuzida nim tabassum, burni biroz turtib chiqqan, lablari qimtingan, bularning barchasi hukmdorning chuqur tafakkuridan va aqlliligidan darak beradi. Javlon Umarbekovning asarida davlat arbobi va sarkarda Amir Temur aynan shunday qiyofada namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan san'atshunos olim N.N.Volkovning quyidagi so'zlarini eslatib o'tish joiz: "Kompozitsiya nazariyasini bilish keng va asosli tarixiylik uchun zarurdir. Rangtasvir asari ma'lum tarixiy asoslangan mazmunni bildiradi. Tarix ayrim tasviriy san'at yodgorliklari kompozitsiyasi tahlilida yashirin fon bo'lib xizmat qiladi. Hukmdor Amir Temur, temuriylar va ularning tarixiy davrini tasvirlagan rassomlar asari O'zbekiston madaniyatidan o'ziga xos joy egallagan. XX oxiri va XXI asr boshlarida tasviriy san'at ustalari tomonidan yaratilgan bu portret Toshkent shahri va mamlakatimizdagi boshqa shaharlar muzeylari, galereyalari va davlat muassasalarini bezab turibdi. Ular o'zining estetik go'zalligi bilan tomoshabinlar nigohini quvontiryabdi va tarixiy-madaniy bilimlar manbai bo'lib xizmat qilyabdi[1,106].

Xulosa

Javlon Umarbekovning “Amir Temur” va “Kamoliddin Behzod shogirdlari bilan” asarlari tarixiy shaxslarning obrazini badiiy talqin qilishdagi yuksak mahoratini namoyon etadi. U bu asarlarida milliy oʻzlikni aks ettirish, buyuk ajdodlarimizning madaniy va maʼnaviy merosini yodga olishga alohida eʼtibor qaratadi. Rassom tarixiy siymolarni nafaqat tarixiy voqelik doirasida, balki ularning ichki dunyosi, xarakteri va taʼsir kuchini ham aks ettirish orqali tomoshabinni mulohaza yuritishga undaydi. Shunday qilib, Umarbekov ijodi oʻzbek tasviriy sanʼatida tarixiy mavzuning oʻziga xos badiiy ifodasini yaratishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulugʻbek Mamatov. Oʻzbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy sanʼat asarlari (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari) – T.: „Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 184 b.
2. Tasviriy sanʼat. Kasb-hunar kollejlari uchun oʻquv qoʻll./S. Abdirasilov, B. Boymetov, N. Tolipov; Oʻz.R Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi markazi. T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006-y., 176 bet
3. Кази Ахмад. Трактат о каллиграфиях и художниках. Введение, пер, и ком. Б.Н.Заходера. М-Л., 1947..
4. Каталог “Долина откровений” Джавлон Умарбеков, 2006. Академия художеств Узбекистана, 2006
5. Эгамбердиев А. Созидательная сила таланта // Вечерний Ташкент. 2017.